

O'ZBEKISTONDA TO'QIMACHILIK VA TIKUVCHILIK SANOATIGA BO'LGAN  
E'TIBOR

Abdug'ofurova Shaxodat Ilash qizi

Baxmal tuman 2-son kasb-hunar maktabining “Ishlab chiqarish ta'lif ustasi”



Foto: A'lo Abdullayev / O'zA

XMT va IFC O'zbekistonda to'qimachilik va tikuvchilik sanoatini qo'llab-quvvatlaydi

Xalqaro mehnat tashkiloti va Xalqaro moliya korporatsiyasi O'zbekistonda Better Work (Yaxshiroq ish) dasturini ishga tushirdi, bu mamlakatdagi to'qimachilik va tikuvchilik fabrikalarida mehnat me'yorlariga rioya etilishini ta'minlashga yordam beradi. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) va Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) O'zbekistonda mehnat sharoitlarini yaxshilash va mamlakatning asosiy tarmoqlari bo'lgan to'qimachilik va tikuvchilik sanoatining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan yangi Better Work dasturini ishga tushirdi. IFC, XMT va 3 nafar o'zbekistonlik ishtirokchi, jumladan, hukumat, ish beruvchilar va ishchilar tashkilotlari 30-may kuni dastur shartlarini o'z ichiga olgan o'zaro anglashuv memorandumini imzolagan, hujjat dastlab 24 oyga mo'ljallangan. Bitim O'zbekiston uchun paxta, to'qimachilik va tikuvchilik sanoatini yangi eksport bozorlariga ochish yo'lidagi muhim bosqichdir.

O'zbekiston paxta yetishtirish bo'yicha dunyoning yetakchi 10 ta davlati qatoriga kiradi va so'nggi yillarda sohada jiddiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Better Work sanoatni yig'uvchi sifatida ishlaydi va O'zbekiston to'qimachilik va tikuvchilik fabrikalarida mehnat standartlariga rioya etilishiga yordam beradi.

“Better Work (Yaxshiroq ish)” dasturi mehnat standartlarini ta'minlash va to'qimachilik va tikuvchilik korxonalarining raqobatbardoshligining muvofiqlikni baholash, o'qitish va texnik yordam orqali sifatni oshirishga qaratilgan. Bu O'zbekiston

to‘qimachilik va tikuvchilik fabrikalarida sanoatni rivojlantirish va mehnat me’yorlarini ta’minlashga ko‘maklashadi.

“Dastur to‘qimachilik va tikuvchilik sanoatida barqaror o‘sishni ta’minlaydi, bu esa asosan mamlakat bo‘ylab qishloq joylarida tikuvchilik sanoatida ishlaydigan ayollar uchun minglab yangi munosib ish o‘rinlarini yaratishga yordam beradi”, — dedi Better Work dasturi delegatsiyasi rahbari Konor Boyl.

Memorandum O‘zbekiston hukumati, Juhon banki, XMT va boshqa manfaatdor tomonlarning paxta dalalarida mehnat va ekologik standartlarni yaxshilash bo‘yicha uzoq muddatli sa‘y-harakatlariga asoslanadi. IFC 2016-yildan buyon maslahat va moliyaviy yordam ko‘rsatish orqali O‘zbekistonda paxta va to‘qimachilik sanoatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlab keladi.

XMT 2013-yildan buyon O‘zbekistonning to‘qimachilik sohasida, jumladan, paxta yig‘im-terimi monitoringi orqali faoliyat yuritadi va 2022-yilda O‘zbekiston paxta ishlab chiqarishda tizimili majburiy va bolalar mehnatiga barham berilganini tasdiqladi. O‘zbekistonda Better Work dasturini dastlabki moliyalashtirish Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YeTTB) tomonidan taqdim etildi. “Umid qilamizki, Better Work dasturi jahon brendlari va to‘qimachilik kompaniyalariga O‘zbekistonning to‘qimachilik sanoati va tikuvchilik sanoati afzalliklari va barqarorligi haqida katta signal beradi”, — dedi IFC ning Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo va Turkiyadagi ishlab chiqarish, agrobiznes va xizmatlar bo‘limi rahbari Lukas Keysi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.01.2023 yildagi PF-2-son Farmonida paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirishga qaratilgan farmonni imzoladi. Bu farmonda quydagicha fikirlar bildirilgan edi:

So‘nggi yillarda mamlakatimizda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirish, soha korxonalarining investitsiya va eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida respublikada ishlab chiqarilayotgan paxta tolasi to‘liq va ip kalavaning 45 foizi qayta ishlanmoqda, shuningdek, sohaning yillik eksport salohiyati 3,2 milliard dollardan oshdi.

Shu bilan birga, jahon bozorlarida raqobatning kuchayishi, xorijiy ishlab chiqaruvchilar tomonidan aralash turdagи mahsulotlar ishlab chiqarish hisobiga xarajatlarning kamaytirilishi ushbu sohani rivojlantirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlarni taqozo etmoqda.

Keyingi besh yilda paxta tolasini chuqur qayta ishlash orqali yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar, to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2,1 baravarga va eksport ko‘rsatkichini 2,6 baravarga oshirishni ta’minlash hamda gilam va uy to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan kabi fikirlar bildirilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizning ta’lim tizimida, hususan professional ta’lim tizimda ham “Tikuvchilik” yo’nalishining ochilishi to‘qimachilik va tikuvchilik sanoatiga bo‘lgan e’tiborga misol bo‘la oladi. Bugungi kunda yurtimizdagи minglab kasb-hunar maktablarida qizlarimiz tikuvchilik kasbining sir-sanoatlarini o‘rganib ilim olishmoqda.

Hususan bizning Baxmal tuman 2-son kasb-hunar maktaqbida bugungi kunda “Tikuvchi” kasbining “Dual” ta’lim tizimi yo’nalishida o’qiyotgan talaba qizlarimizga hamma shart-sharoitlar yaratilib bergan. O’quvchi qizlarimiz yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanib tikuvchilik kasbini maxoratli ustozlaridan ilim olib, moliyaviy tamondan ota-onasiga qarashmoqda. Hozirgi kunda o’quvchi qizlarimiz atrofdagi honadonlardan, xotin-qizlardan tushayotgan buyurtmalarni qabul qilib pul ishlashmoqda. Professional ta’limni bitirayotgan o’quvchilarimiz hozirgi kunda yurtimizdagи ko’plab ishlab chiqarish zavodlariga, tikuvchilik sexlariga va boshqa fabrikalarga tayyor kadr bo’lib borishmoqda. Biz o’qituvchi va murabbiylar ishonamizki, bugungi kundagi o’quvchilarimiz, hayotda o’z o’rniga ega bo’lgan professional kadrlar bo’lib yetishib chiqadi.